

## **MAKTABDA IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI**

### **O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA MAKTAB PSIXOLOGINING ASOSIY VAZIFALARI**

*Choriyeva Sojida Oltiboyevna*

*Buxoro viloyati Olot tumani MMTBga qarashli 13-umumiy o'rta ta'lim  
maktabi amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya.** Bolaning kelajakda qanday inson bo`lib yetishishi ko`proq ota-onasi va o`z oilasiga hamda unda tarkib topgan muhitga bog'liq. "Bola ota-onasidan qayerga ortib boradi" degan gap ayni haqiqat. Demak, farzandlar ota-onalarini davomchilaridir. Lekin oiladagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy muhitga darz ketgan bo'lsa, oila inqiroz va xavfga yuz burgan bo'lsa vaziyat ham salbiy ko`rinish oladi.

**Kalit so'zlar:** Oila, ijtimoiy ishchi, profilaktika, reabilitatsiya, maktab, mahalla, hamkorlik, vaziyat, maqsad, muammo, kam ta'minlangan oilalar, nogironlik, iqtisodiy yetishmovchilik, ishsizlik, qashshoqlik, ruhiy holat, tushkunlik.

#### **KIRISH**

Oila jamiyatning muqaddas maskani, eng asosiy tarbiya makonidir. Oiladagi ota ibrati, ona mehri, bobo va buvilar o'gitlari orqali milliy qadriyatlarimizga bo'lган imon-e'tiqod, halollik, mehr-oqibat avloddan avlodga o'tadi, farzandlarimiz ongi va qalbida muhrlanib boradi. Iqtisodiy jihatdan farovon, ijtimoiy-axloqiy va g'oyaviy muhiti sog'lom oila negizida yuzaga kelgan jamiyat va davlatning poydevori mustahkam bo'ladi. Chunki bunday oilalarda ma'naviy barkamol inson voyaga yetadi, uning his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, tafakkuri el-yurtga halol xizmat qilishdek insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Oiladagi sog'lom muhit esa bevosita ota - ona hamda ularning munosabatlariga borib taqaladi. Bu borada Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev: "Kun tartibiga qo'yilgan masala, ya'ni, ijtimoiy-ma'naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar





tarbiyasi, tinchosuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q"-deya ta'kidlaydi.

Bolaning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ko'proq ota-onasi va o'z oilasiga hamda unda tarkib topgan muhitga bog'liq. "Bola ota-onasidan qayerga ortib boradi" degan gap ayni haqiqat. Demak, farzandlar ota-onalarini davomchilaridir. Lekin oiladagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'nnaviy muhitga darz ketgan bo'lsa, oila inqiroz va xavfga yuz burgan bo'lsa vaziyat ham salbiy ko'rinish oladi. Bunday inqirozli va xavf guruhiga quyidagi oilalar kiradi: kam ta'minlangan oilalar. qochqinlar va majburiy migrantlar oilalari, qaramligi yuqori bo'lgan oilalar (ko'p bolali oilalar, nogironlar), to'liq bo'lmaslik oilalar, muddatli harbiy xizmatga chaqirilganlarning oilalari va boshqalar.

Xo'sh, ma'lum bir hayotiy sabab va vaziyatlar tufayli oila hamda uning muhitida salbiy o'zgarishlar, ziddiyatlar, judoliklar sodir bo'lsachi, oiladagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi va ularning kelajaklariga qay yusinda o'z ta'sirini ko'rsatadi, xavf nima va u qanday ko'rinishlarda oilalarda namoyon bo'ladi degan savol tug'iladi.

"Xavf" tushunchasi yunoncha risikon-jarlik ma'nosini anglatib, asosan quyidagi mazmunda qo'llaniladi: bu-sodir bo'lsh yoki sodir bo'lmaslik ehtimoli yuqori bo'lgan kutilmagan salbiy holatlardir.

Xavfli oilalar esa quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1. Bunday oila a'zolarida oilada bo'layotgan voqealarni tahlil qilish qobiliyati zaif bo'lib, ular oilaviy hayotni yaxshilash va samarali natijalarga erishish uchun aniq maqsadlarni qo'ya olmaydilar.
2. Oilaviy muammolarni og'zaki muhokama qilish ko'nikmasining yo'qligi; bu oilalarning a'zolari psixolog oila hayotini qanday yaxshilashni so'z bilan tushuntirmoqchi bo'lganida, muammoning sabablari nimada ekanligini yaxshi tushunmaydi.



3. Sevgi, g'amxo'rlik, o'zaro yordam bilan bog'liq his-tuyg'ulardan farqli o'laroq, hokimiyatga erishish, hukmronlik, tajovuzkorlik bilan bog'liq his tuyg'ularning oilada ustunlik qilishi.

4. Spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar muammosiga nisbatan yuqori darajadagi xavf.

Ijtimoiy xavf omillariga esa quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar (oilada moddiy turmush darajasining pastligi, uy-joy sharoitining yomonligi, ota-onaning ishsizligi, ko'p va to'liq bo'lмагan oilalar, voyaga yetmagan ota-onalar);

2. ijtimoiy-demografik omillar (qayta turmush qurish, oilada o'gay bola);

3. tibbiy-sanitariya omillari (ota-onalarning surunkali kasalliklari, oilada nogironlarning mavjudligi, og'irlashgan irsiyat);

4. psixologik-pedagogik omillar (oila ichidagi shaxslararo munosabatlarning buzilishi, oila a'zolarining qadriyat yo'nalishlarining deformatsiyasi, ajralishdan oldingi va keyingi oilaviy vaziyat, ota-onalarning pedagogik qobiliyatsizligi, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi begonalashuv, hissiy hamdardlik va ishonchning yo'qligi, ota onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ta'limdagи muqsonlar va boshqalar).

Turli olimlar xavf, xatar, inqirozga yuz tutgan oilalar bolalarini tasniflashga imkon beradigan omillarning turli guruhlarini ajratib ko'rsatadilar.

L.V. Mardaxayev ko'p bolali, to'laqonli shakllanmagan oilalarni; nogiron bolalari bo'lган oilalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni xavf guruhi deb biladi. Xavf guruhidagi bolalar va o'spirinlarga kelsak, u ularga genetik, biologik va ijtimoiy xususiyatlarning turli sabablari tufayli allaqachon mакtabga aqliy va somatik zaiflashgan, ijtimoiy e'tibordan chetda qolgan, bolalarni nazarda tutadi.

T.I. Shulga, V. Slot va X. Spanyard o'zlarining "Xavfli bolalar bilan ishlash usullari" kitobida bolalarni tarbiyalashda eng katta ahamiyatga ega bo'lган quyidagi ijtimoiy xavf omillarini sanab o'tdilar:



- 1) ijtimoiy-iqtisodiy omillar;
- 2) tibbiy va ijtimoiy omillar; 3) ijtimoiy-demografik omillar; 4) ijtimoiy-psixologik omillar.

V.E Letunovaning yondashuvi, quyidagi xavf omillarini guruhini aniqlaydi:

- biomedikal (sog'liqni saqlash guruhlari, irsiy sabablar, tug'ma xususiyatlar, aqliy va jismoniy rivojlanishdagi buzilishlar, bola tug'ilishi uchun sharoitlar, ona va uning turmush tarzi kasallikkleri, intrauterin travma (ona / homilaning bezovtalik sindromi));

- ijtimoiy-iqtisodiy (katta va to'la-to'kis oilalar, voyaga yetmagan ota-onalar, ishsiz oilalar, axloqsiz turmush tarzini olib boruvchi oilalar; jamiyatda yashashga qodir emaslik: qochish, qashshoqlik, bekorchilik, o'g'irlik, firibgarlik, janjal, qotillik, o'z joniga qasd qilish, tajovuzkor buyruq, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalarni iste'mol qilish);

- psixologik (ijtimoiy muhitdan uzoqlashish, o'z-o'zini rad etish, nevrotik reaktsiyalar, boshqalar bilan aloqaning buzilishi, hissiy beqarorlik, faoliyatda muvaffaqiyatsizlik, ijtimoiy moslashishda muvaffaqiyatsizlik, muloqotda qiyinchiliklar, tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlar);

- pedagogik (ta'lim muassasasi dasturlari mazmuni va bolalarni ularning psixofiziologik xususiyatlariga o'rgatish shartlari, bolalarning aqliy rivojlanish darjasи va o'rganish darjasи, salbiy baholarning ustunligi, faoliyatdagi noaniqlik, o'rganishga qiziqish yetishmasligi, ijobiy tajribaga yaqinlik, talaba qiyofasiga mos kelmaslik).

Odatda, hissiy sohasida muammolari bo'lgan xavf guruhidagi bolalar deb ataladigan uchta asosiy guruhni ajratish mumkin:

1. Agressiv bolalar. Har bir bolaning hayotida unga tajovuz ko'rsatgan holatlar bo'lgan, shuning uchun e'tibor tajovuzkor reaktsiyaning namoyon bo'lish darjasи, harakatning davomiyligi va ta'sirchan xatti-harakatni keltirib



chiqaradigan, ba'zan yashirin bo'lishi mumkin bo'lgan sabablar xususiyatiga qaratiladi.

2. Tuyg'ulari buzilgan bolalar. Bunday bolalar hamma narsaga haddan tashqari zo'ravonlik bilan munosabatda bo'lishadi.

3. Juda uyatchan, xavotirli bolalar. Ular his-tuyg'ularni aniq ifoda etishdan uyalishadi va o'zlarining muammolari haqida jimgina tashvishlanadilar, o'zlariga e'tiborni jalg qilishdan qo'rqli shadi.

Bunday bolalarni asosan suhbatlashish, kuzatish orqali aniqlab olish mumkin. Ushbu vaziyatlarda ijtimoiy ish xodimi zimmasiga bir qancha vazifalar yuklatilib, ular quyidagilar:

birinchi o'rinda obyektni, ya'ni inqirozli oilalarni aniqlab olish.

-Xavfsizlik va himoya qilish (oilani huquqiy qo'llab-quvvatlash, uning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash, huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish);

-Tashkiliy va kommunikativ (muloqotni tashkil etish, birgalikdagi faoliyatni boshlash, birgalikda dam olish, ijodkorlik kabilarni tashkil etish);

-Ijtimoiy-psixologik-pedagogik (oila a'zolarini psixologik-pedagogik tarbiyalash, shoshilinch psixologik yordam ko'rsatish, profilaktik yordam);

-Pragnostik (vaziyatlarni modellashtirish va muayyan maqsadli yordam dasturlarini ishlab chiqish);

-Muvofiqlashtirish (oila va bolalarga yordam berish, aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'limlari, Ichki ishlar organlarining oilaviy muammolar bo'limlari, ta'lim muassasalarining ijtimoiy o'qituvchilari, reabilitatsiya markazlari bilan hamkorlikda ish olib borish). Oilalar bilan ijtimoiy ish o'z cheklolvariga ega. Masalan, ijtimoiy ishchi oilaning barcha muammolarini o'zi hal qila olmaydi, ba'zan esa boshqa mutaxassislar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish talab etiladi. Bundan tashqari, oilalar bilan ijtimoiy ishning muvaffaqiyati



oilaning o'zgarishga tayyorligi va motivatsiyasiga va jarayonda faol ishtirok etishga bog'liq

## **XULOSA**

Bir so'z bilan aytganda xavf guruhidagi oilalar bilan to'g'ri va aniq yo'naltirilgan ishlarni tashkil qilmaslik, yuqoridagi kabi salbiy holatlarni oldini olmaslik jamiyat uchun ham xavf-xatarni yuzaga keltira boshlaydi. Bitta oiladagi buzilgan ijtimoiy vaziyat o'zining oqibatlari bilan jamiyatda katta "Ijtimoiy xavf omillari" ni paydo qiladi. Natijada ijtimoiy xavf guruhidagi oilalar vujudga kela boshlaydi. Bunday oilalardagi farzandlarda salbiy holatlar kuzatila boshlanadi, deviant xulq atvor, uydan qochish, o'z joniga qasd qilish va huquqbazarliklarga yo'l qo'yish holatlari tobora ko'payib boradi. Bundan tashqari, ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolgan oilalar sonining ko'payishi bilan ota-onasi tirik bo'lgan yetim bolalar soni ko'payadi (ota-onalar o'z farzandlarini keksa ota-onalari tarbiyasida qoldiradilar, ularni boqish, tarbiyalash va o'qitishdan bosh tortadilar), oilalarning tanazzulga uchrashi sodir bo'ladi (ular ichishadi, axloqsiz turmush tarzini olib boradilar, antisanitariya sharoitida yashaydilar, ishlamaydilar va hokazo). Ko'rinish turibdiki, bular jiddiy ijtimoiy xatardan darak beradi va oldi olinmasa butun bir millat tanazzuliga sababchi bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ganiyeva M.X., Latipova N.m., Alekseyeva V.S., Ismailova B.X., Abduraxmanova M.M.

Bolalar va yoshlar ijtimoiy ta'minoti va himoyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: 2020.-298b.

2. Мудрик А.В. Социальная педагогика: учебник для студ. высш. учеб. заведений / А.В.

Мудрик. –М.: Академия, 2009. – 345 с.

3. Karimova V. Oila psixologiyasi: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: 2007 - 102 b.

5. Ijtimoiy xizmat. D. Raxmonov. Uslubiy qo'llanma. Samarqand : SamDU nashri, 2007